

## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Yuldasheva Muxabbat Abdumalikovna*

*Asaka tumani 10-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Maqolada ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishni ilg'or-pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim samaradorligini oshirish, dars jarayonida ta'limiy o'yinlar o'quvchilarni faol ishtirokiga aylanish yo'llari hamda ona tili va adabiyot fanlaridagi muammoli mavzulardan kelib chiqib, bog'liq muammoni ajratib olish orqali yetuk malakaga ega bo'lishlar masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** ilg'or texnologiyalar, interfaol metodlar, ta'limiy o'yinlar, texnologik xarita, muammoli vaziyat.

### **KIRISH**

Dunyoning barcha rivojlanayotgan davlatlari (hatto bir qator rivojlangan davlatlar ham) hozirgi globllashuv vaqtda o'z oldiga hamma bolalarni umumiy o'rta ta'lim jarayoniga to'liq qamrab olish masalasini qo'ygan bir vaqtda, mustaqil O'zbekistonimizda ushbu muammo allaqachon muvaffaqiyatli hal etilgan bo'lib, uzluksiz ta'limda masofaviy ta'limni qo'llab, o'quvchilar bilimni baholashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Bugungi kunda navbatdagi ustuvor vazifa sifatida, sifatli ta'lim-tarbiya berish, ta'limning samaradorligini oshirish masalasi qo'yildi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik,

yo`naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o`quvchi asosiy figuraga aylanadi.

### **ASOSIY QISM**

Shuning uchun maktablarda zamonaviy o`qitish metodlari - interaktiv metodlar, innovasion texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir.

Bu metodlarning o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o`quvchilarning birgalikda faoliyat ko`rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari Darslarni innovasion texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o`qituvchi innovasion faoliyat yuritgandagina ta'lim mazmuni o`zgaradi.



O`quv mashg`ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili va adabiyot darslariga interfaol metodlar va ta'limiy o`yinlardan foydalanish o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo`lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Quyida biz ana shunday metodlardan ayrimlari haqida fikr yuritib, ulardan namunalar keltiramiz:

Mashg`ulotni o`tkazish tartibi muammo o`zi nima degan savol asosida mavzuga kirib boriladi. Muammo bilish va bilmaslikning o`rtasi bo`lib, bunda muammoning dolzarbligi va o`ziga xosligi nazarda tutiladi..

Muammoli ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u o'quvchiga qo'yilgan muammo yechimini topish uchun ilmiy-ijodiy tafakkur yuritish, jadal va mantiqli fikrlash, so'z va atamalar, asar g'oyasi hamda ma'nosini o'zaro qiyoslash, o'zi uchun eng to'g'ri yechim tanlash imkoniyatlarini beradi. Bu texnologiya o'quvchining imkoniyatlaridan o'zaro uzviylik va uzluksizlikdan foydalanish, izchil va mantiqiy fikrlash darajasini yaxshilaydi. O'rganuvchi sub'ektning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlanishiga olib keladi, xususiy intellektual iste'dod qirralarini ochishga yo'naltiradi. Texnologiyaning afzalliklari. O'quvchilar hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Muammoni aniqlash ko'nikmalari shakllanadi. Diqqatni idrok qilishni. mantiqiy fikrlashni o'rganadi. Muammolar ichidan dolzarbini ajratib olishni o'rganadi. Kamchiliklari. Vaqt ko'p sarflanadi. Barcha ishtirokchilarning fikrlari to'liq inobatga olinmasligi mumkin. O'zaro bir to'xtamga kelish uchun ortiqcha mulohazalar qayd etilishi kuzatiladi va h.k. Muammoli vaziyat va muammoning bayoni. Tafakkur - inson oldida turgan masala va muammolarni yechishga olib keladigan idrok bo'lib, tafakkur muammoli vaziyatdan kelib chiqadi hamda muammoni yechishga qaratilgan bo'ladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari Muammoli vaziyatni shakllantirish tamoyillari. Muammoli o'quv toshiriqlari. Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi orqali o'quvchilarni turli muammolardan chiqib ketish yo'llarini axtarishga, kezi kelganda ana shu muammoning yechimini topishga yo'naltirish lozimligi tushuntiriladi. Masalan, G'.G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi asosida o'quvchilarni asar matnidan kelib chiqib, muammoni topishga, muammoni keltirib chiqargan sabablar hamda ushbu muammoni hal etish yo'llari haqida fikrlar bildiriladi.<sup>2</sup> Masalan, hikoyadagi o'g'ri haqiqatan ham o'g'rimi, muammosi qo'yilsa, ushbu muammoni keltirib chiqaruvchi sabablar - xalqning og'ir hayotga giriftor bo'lishi, mahalliy sharoitning og'irligi, noto'g'ri davlat boshqaruvi, ishsizlik, xalq boyligi huzurini boshqalar ko'rishi, urushning xalqqa yetkazgan zarari, deya mulohazalar bayon etilsa, muammoni hal etish yo'llari - mamlakat aholisini savodxon qilish, yurtni bosqinchilar zulmidan ozod etish, mingboshi, ellikboshi kabi chalasavod rahbarlar o'rniga savodli xalq vakillaridan tayinlash, ishsizlikni bartaraf etish, jamiyatni

## **XULOSA**

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni alohida ta’kidlash joizki, darsning sifati, samaradorligi o`qituvchi tomonidan unga puxta tayyorgarlik ko`rishiga bog`liqdir. Bunda dars ishlanmasining hozirgi zamon ilg`or texnologiyalariga muvofiq holda loyihalanishi alohida o`rin tutadi.

## **ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. / Barkamol avlod
- 2. O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997. 20-29 betlar.
3. “Tilshunoslik atamalarining izohli lug’ati ”. N.Uluqov.Namangan
4. Boqijon To'xliyev " Adabiyot o'qitish metodikasi".Toshkent-2016.
- 5 Yo'ldoshev J, Yo'ldosheva F., Yo'ldosheva G. Interfaol ta'lim – sifat kafolati. Toshkent-2018
6. Q.Yo'ldoshev "Adabiyot o'qitish metodikasi".Toshkent-2009.